

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8  
2023



Tosh o'rmoni  
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'lqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi .....	6
<b>Muxiddin Kalonov</b> , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
<b>Jumayev Olimjon Sadulloyevich</b> , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
<b>Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
<b>Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li</b> , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi .....	34
<b>Mamaraximov Bekzod Erkinovich</b> , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
<b>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</b> , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
<b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
<b>Berdiyev Anvar Abduraxmonovich</b> , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati .....	56
<b>G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish .....	61
<b>Olimjanova Nigora Alisherovna</b> , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining roli.....	65
<b>Saydirasulov Laziz Alimovich</b> , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar .....	71
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , kafedra dotsenti; <b>Axmedov Akbarali Sultonmurodovich</b> , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций .....	78
<b>Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич</b> , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
<b>Махмудов Носир Махмудович</b> , д. э. н., профессор; <b>Фозилова Фирангиза Комиловна</b> , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
<b>Sherali Xolliyev</b> , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnii rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni .....	94
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
<b>Xakimov Ziyodulla Axmadovich</b> , dotsent; <b>Axmadova Rayxona Jasurbek qizi</b> , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
<b>Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi</b> , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
<b>Abdiyeva Flora Botir qizi</b> , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar .....	114
<b>Abdullahayev Farxod Ozodovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari .....	119
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country .....	125
<b>Sanakulova Barnogul Rizakulovna</b> , Doctor of Economic Science, Professor;	
<b>Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli</b> , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
<b>Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi</b>	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution .....	133
<b>Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li</b>	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili .....	138
<b>Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li</b> , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida .....	151
<b>Sharifi Ahmad Sakhrob</b> , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны .....	156
<b>Суюнова Фотима Баходир кизи</b> , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози .....	161
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
<b>G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi</b> , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане .....	174
<b>Жуманиязова Феруза</b> , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
<b>Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna</b> , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
<b>Nilufar Sharipova</b> , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar .....	197
<b>Nurillayev Jamoliddin Yarashevich</b> , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
<b>O'roqov Mamurali Odil o'g'li</b> , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi .....	208
<b>Razzaqov Jasur Hamraboievich</b> , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
<b>Рузиева Дилноза Абдусаматовна</b> , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari .....	216
<b>Saydullayev Shaxzod Sherzodovich</b> , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения .....	222
<b>Хажиев Бахтиёр Душабоевич</b> , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari .....	227
<b>Adizov Sardor Rashidovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish .....	231
<b>Mamatov Sardor Axmatjonovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
<b>Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li</b> , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана .....	243
<b>Мирзахалилова Азизахон Алишеровна</b> , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish .....	249
<b>Sultanov Maxmud Axmedovich</b> , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni .....	254
<b>Xojoyev Elshod Yoqub o'g'li</b> , PhD; <b>Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики .....	259
<b>Отакулов Махамаджон Каримович</b> , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	264
<b>Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li</b> , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
<b>Eshmatov Sanjar Ashirqulovich</b> , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
<b>Gadoyev So'hrob Jumakulovich</b> , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
<b>Алимова София Розумбаевна</b> , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
<b>Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich</b> , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
<b>N. N. Ismatullayeva</b> , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
<b>Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna</b> , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
<b>Жураева Нодира Фузулий кизи</b> , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari .....	310
<b>G. Abduvosidova</b> , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
<b>Nazarov Shohbek Isroilovich</b> , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
<b>Mamatov Axmetjon Atajanovich</b> , professor; <b>Allaberganova Zakir Gayibovich</b> , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li</b> , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli .....	330
<b>Norov Akbar Ruzimamatovich</b>	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi .....	335
<b>Xoliqov Ulug'bek Rustamovich</b> , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba .....	341
<b>N.N.Ro'ziyev</b>	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
<b>Astanov Sherzod Rustamovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
<b>Nosirova Charos</b>	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
<b>Irgasheva Gulbahor Sodiqovna</b> , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari .....	369
<b>Abduxamidova Gulxayo</b> , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili .....	374
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala.....	380
<b>Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi</b> , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami .....	386
<b>Xайдарова Малика Шакирджановна</b> , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili .....	396
<b>S.T.Toshaliyeva</b> , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
<b>Ruzibayev Jahongir Nodirovich</b> , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
<b>Nabiiev Feruz Nurmurodovich</b> , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish .....	412
<b>Imomova Nodira Shavkatovna</b> tadqiqotchi, <b>Sultonov Mansur Qilichevich</b> PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
<b>Xashimova Naima Abitovna</b> , i.f.n., professor; <b>Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li</b> assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
<b>M.A.Saparova</b> , talaba	



# BALANSNING TARKIBIY TUZILISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**Tulayev Mirzakul Salamovich**  
TDIU, Moliya va buxgalteriya hisobi kafedrasi dotsenti



**Axmedov Akbarali Sultonmurodovich**  
TDIU, Moliya va buxgalteriya hisobi kafedrasi i. f. n (PhD) dotsenti

**Annotatsiya:** Jahon moliyaviy munosabatlarini globallashuvi sharoitida mamlakatning iqtisodiy holati va uni resurslari samarali boshqarish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi. Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarning nazorat tizimini takomillashtirish, samaradorlikni oshirish hamda xo'jalik ma'lumotlaridan aniq va to'liq foydalangan holda boshqaruv qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy holati bo'yicha balans tuzishning nazariy asoslari tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar va balans tuzishning muhim elementlariga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Balans, korxona, mablag', manba, aktiv, passiv, xarajat, daromad, standart, hisobot.

**Abstract:** In the context of globalization of world financial relations, the economic situation of the country and the effective management of its resources ensure the economic stability of the country. This article discusses the structural structure and influence of the theoretical foundations of the balance sheet on the financial condition of business entities to improve the management system of business entities, increase efficiency, make managerial decisions with a clear and complete use of economic information on important elements of creating a balance sheet.

**Key words:** Balance sheet, enterprise, fund, source, asset, liability, expense, income, standard, report.

**Аннотация:** В условиях глобализации мировых финансовых отношений экономическое положение страны и эффективное управление ее ресурсами обеспечивают экономическую стабильность страны. В данной статье рассмотрены структурная структура и влияние теоретических основ бухгалтерского баланса на финансовое состояние хозяйствующих субъектов для совершенствования системы управления хозяйствующими субъектами, повышения эффективности, принятия управленческих решений с четким и полным использованием экономической информации о важных элементах создания баланса.

**Ключевые слова:** Баланс, предприятие, фонд, источник, актив, обязательство, расход, доход, норматив, отчет.

## KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar barqarorligi va samaradorligini oshirishga iqtisodiyotimizda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Islohotlarning, iqtisodiyotni rivojlantirishga hamda xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev o'z nutqlarida iqtisodiyot ma-salasiga to'xtalib "Iqtisodiyot – bu hisob-kitob degani. Har bir ishimizda puxta hisob-kitob birinchi o'rinda turishi lozim" [1] deb ta'kidlab o'tdilar. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini yuritish uchun aniq qonun qoidalar va tartibga soluvchi qarorlar bilan belgilab qo'yilgan. Buxgalteriya to'g'risidagi qonunning asosiy maqsadi buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda barcha xo'jalik operatsiyalarini yaxlit, uzlusiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotini yig'ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingen tizimidan, shuningdek, uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iborat [2].



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

D. A. Sativaldiyeva Buxgalteriya balansi jadval shaklida bo'lib, ikki qismidan iborat bo'ladi. Uning chap qismi aktiv, o'ng qismi passiv deb ataladi. Balansning aktiv qismida xo'jalik mablag'lari va ularning joylashishi aks ettirilsa, passiv qismida esa xo'jalik xo'jalik mablag'larining tashlil topish manbalari bo'ladi [3].

R. D. Dusmuratovning ishlarida buxgalteriya balansi ikkita bo'limgan: aktiv va passivdan iborat bo'lib, balans aktivi o'z navbatida uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar, passivi esa o'z mablag'lari manbalari va majburiyatlardan iborat. [4]

M. S. Tulayev tomonidan Buxgalteriya hisobi korxonalar faoliyatini o'rganib, unda sodir bo'lgan jarayonlar hisobini yuritadi, buxgalteriya hisobining obyektlari aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zahiralar, daromadlar, xarajatlar, foyda, zararlar va ularni harakati bilan bog'liq xo'jalik jarayonlari hisoblanadi [5].

M. S. Ribyanseva va Ye. A. Oksanichlar buxgalteriya balansi tuzish maqsadlaridan kelib chiqqan holda turli xil belgililar bo'yicha turkumlanishini keltirishgan [6].

M. A. Ryabova, N. A. Bogdanova, A. V. Glushenko rossiyalik mutaxassislar tomonidan buxgalteriya balansining tarkibi bo'yicha bildirilgan fikrlarda buxgalteriya balansi aktiv va passiv qismlardan iboratligi hamda aktiv qismi aylanmadan tashqari aktivlar va aylanma aktivlardan, passiv qismi esa kapital va rezerv, uzoq muddatli majburiyatlar va qisqa muddatli majburiyatlardan iboratligi keltirilgan [7].

U. I. Inoyatov va boshqalar hisobot – korxona, birlashma, uyushma, konsern, korporatsiya, aksiyadorlik jamiyiati va shu kabilarning o'tgan vaqt ichidagi ishlari natijalari va sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlar majmui [8].

O. V. Mamoshina buxgalteriya balansining ahamiyati uni shakllantirishning asosiy prinsiplarida o'z aksini topadi deb ta'kidlagan hamda quyidagi asosiy prinsiplarni keltirgan. O. V. Mamoshinaning fikriga ko'ra ushbu prinsiplarga amal qilishgina buxgalteriya balansining zarur funksionalligini ta'minlaydi [9].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada induksiya va deduksiya, monografik kuzatish, omilli tahlil, sintez va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJA

Buxgalteriya balansini tuzishdan asosiy maqsad korxonaning moliyaviy ahvoli haqida ma'lumotlarga ega bo'lib korxonani samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlar qabul qilish hamda investorlar, kreditorlar va boshqa foydalananuvchilarning qiziqishi ortishiga katta zamin yaratishdir.

Korxonaga rahbarlik qilish uchun korxonaning mablag'lari uning qanday joylashganligi va ularning kelib chiqish manbalari haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bunday ma'lumotlar buxgalteriya balansi yordamida olinadi. Buxgalteriya balansi negizida "balans" so'zi yotadi. Bu so'z lotincha "bis" ikkita va "lanx" tarozi pallasi so'zlaridan olingan bo'lib, o'zaro tenglik, bir xillik ramzi hisoblanadi. Buxgalteriya balansida korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risida katta hajmdagi ma'lumotlar bo'lib, korxonaning mulkiy holati, moliyaviy resurslarning mavjudligi, ularning taqsimlanishi va foydalanimishi, moliyaviy natijalar (foyda)ning kapitalizatsiyasi, o'z va qarz mablag'lari manbayi, pul mablag'larining mavjudligi va holati, debitorlik va kreditorlik qarzlarining holati, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning holati hamda uning o'zgarishi va shu kabilalar haqida ma'lumotlar taqdim qilinadi hamda ularning holatini ularning holatini pulda aks ettirish holatidir. To'liq bo'limgan va ishonchsiz ma'lumotlar, qoidaga ko'ra korxonaning raqobatbardoshligi va moliyaviy-iqtisodiy holatida aks etuvchi noto'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishga olib keladi. Ma'lumotlardan foydalana olmaslik, ya'ni uning asosida monitoring va tahlilini amalga oshira olmaslik to'plangan ma'lumotlarning foydasizligiga, menejmentning sifati yomonlashishiga olib keladi. [10]


Korxona rahbarlari buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotning boshqa shakllarida keltirilgan ma'lumotlardan foydalana olishi, ularni o'qiy olishi, ulardagи ma'lumotlardan foydalangan holda har bir hisobot moddasi orqasidagi korxonaning haqiqiy holatini ko'ra olishlari, mablag'lar qayerdan kelib tushganligi va ular qayerda joylashganligini hamda ularning normal ish faoliyati uchun yetarlilikini baholay olishlari kerak. Xo'jalik yurituvchi subyektning to'laqonli faoliyat yuritishi va doimiy iqtisodiy o'sishi uchun doimiy ravishda uning moliya-xo'jalik holatini tahlil qilish va baholash zarur. Xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik holati haqidagi hisobot ma'lumotlarini muntazam kuzatib borish korxonaga iqtisodiy siyosatini o'z vaqtida tuzatishlar kiritib borishiga imkon beradi.

Shunday tahlil qilinadigan va baholanadigan hujjatlardan biri moliyaviy hisobotda asosiy o'rinn egallaydigan asosiy shakllaridan biri hisoblangan buxgalteriya balansidir. Qonunchilikka ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektlar belgilangan muddat va hajmlarda moliyaviy hisobotlarni taqdim qilishlari, shuningdek bundan hisobotlarni taqdim qilish va ayrim moddalarini baholashda zarur talablarga riosa qilishga majburdirlar.



Buxgalteriya balansi asosiy hisobot shakli sifatida davlat organlari, korxona rahbariyati, korxona mulkdorlari, banklar va investorlar, kreditorlar va debitorlar oldida hisobot taqdim qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.


Korxona mablag'lari va ularning manbalarini guruhash va umumlashtirish vositasi sifatida va ularni qiymat ifodasida aks ettirganligi hamda moliyaviy hisobot tarkibida asosiy o'r'in tutganligi sababli buxgalteriya balansining turlari va shakllarini o'rganishning dolzarbli oshib boradi.



**1-chizma:** Balans aktivi va passividagi bo'limlarning o'zaro aloqadorligi

Chizmadan ko'rinib turibdiki, uzoq muddatli aktivlar ham, joriy aktivlar ham korxonaning o'z mablag'lari manbalari va majburiyatlar (qarz manbalar) hisobidan tashkil topishi mumkin (qarang 1-chizma).

Buxgalteriya balansining turlari va shakllarini turkumlagan holda o'rganish korxonaga moliyaviy hisobotning taqdim qilish va shakllantirishning maqbul usulini tanlashga imkon beradi (qarang 2-chizma).




**2-chizma:** Xo'jalik mablag'laring tarkibiy tavslifi

Shu bois har xil vaziyatlar uchun buxgalteriya balansining turkumlanishini ko'rib chiqamiz.

Aktivlar uch xil xususiyatga ega bo'lishi kerak: a) kelajakdag'i iqtisodiy nafni o'zida mujassamlanishi, bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentilarini ko'paytirish imkoniyati; b) bu iqtisodiy naflarni nazorat qilish qobiliyatini mujassamlash; c) oldindi bitimlar yoki boshqa voqealarning natijasi bo'lishi.

"Passiv" – nofaol, xolis (betaraf) turmoq, tushuntirish kabi so'zlarning ildizidan olingan. Tarixan bu atama dastlab faqat qarzga olingan mablag'larga nisbatan, ya'ni uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlarga nisbatan qo'llanar edi. Bu bilan mulk egasi qarzga olingan mablag'larga bo'lgan munosabatda o'zboshimchalik (bemalollik) dan o'zini tutishi kerakligi ta'kidlangan edi (qarang 3-chizma).



### 3-chizma: Mablag'lar tashkil topish manbalarining tarkibi

Keyinchalik “passiv” atamasi manbalarning boshqa moddalariga ham tarqatilgan bo'lib, faqat korxona majburiyatlarini tavsiflabgina emas, mablag'lar turlarini qanday maqsadlarga mo'ljallanganligini ham tavsiflash uchun ishlatalidigan bo'ldi.

Yuqorida rasmlardan ko'rinish turibdiki buxgalteriya balansining aktiv qismida uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar, buxgalteriya balansining passiv qismida o'z mablag'lar manbalari va majburiyatlar joylashgan va quyidagi jadval ko'rinishida bo'ladi (qarang 1-jadval).

1-jadval: Buxgalteriya balansining tuzilishi

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga	Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
Aktiv				Passiv			
I. Uzoq muddatli aktivlar				I. O'z mablag'lari manbalari			
Balans moddalari				Balans moddalari			
1-bo'lim jami:				1-bo'lim jami:			
II. Joriy aktivlar				II. Majburiyatlar			
Balans moddalari				Balans moddalari			
2-bo'lim jami:				2-bo'lim jami:			
Balans bo'yicha aktivlar jami				Balans bo'yicha passivlar jami			

Har doim korxonada turli xildagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'ladi va korxonaning faoliyati ushbu operatsiyalardan tashkil topadi. Korxona omboriga materiallar kelib tushdi, ular ishlab chiqarishga berildi, ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot qabul qilindi, tayyor mahsulot xaridorlarga sotildi va sotilgan mahsulot uchun pul mablag'i olindi, yana xom ashyo materiali sotib olindi, xodimlarga ish haqi to'landi, olingen foydadan soliq, yig'im va to'lovlar to'landi. Bu operatsiyalar ishlab chiqarish tsiklini tashkil qilib doimo qaytarilib turadi.

Har bir xo'jalik operatsiyasi mulk tarkibi yoki uning tashkil topish manbayi yoki bir vaqtning o'zida ham mulkda ham uning tashkil topishida o'zgarishlarga olib keladi. Barcha xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya balansiga ta'sir ko'rsatadi va balansa to'rt tipdag'i o'zgarishga olib keladi.

1. A+ A-,

2. P- P+,

3. A + P+,

4. P- A-.



Birinchi tur o'zgarish. Bu toifa (tip, tur)ga kiruvchi muomalalar ta'sirida balansning aktiv qismida o'zgarish sodir bo'lib, xo'jalik operatsiyasi natijasida balansning bir moddasi ko'payadi va boshqa bir moddasi shu summaga kamayadi. Balansning umumiy summasi esa o'zgarmaydi.

Ikkinchi tur o'zgarish. Sodir bo'lgan muomala balansning passiv qismidagi moddalarga ta'sir ko'rsatib, xo'jalik operatsiyasi natijasida balansning bir moddasi ko'payadi va boshqa bir moddaning shu summaga kamayishi tushuniladi. Balansning umumiy summasi o'zgarmaydi.

Uchinchi tur o'zgarish. Bu toifa (tip)ga kiruvchi muomalalar balansning aktiv va passiv qismlarida sodir bo'lib, xo'jalik operatsiyasi natijasida balansning aktiv qismidagi bir moddaning ko'payishi va balansning passiv qismidagi boshqa bir moddaning shu summaga ko'payishi bilan balansning umumiy summasi ham shu summaga ko'payadi.

To'rtinchi tur o'zgarish. Balansning aktiv va passiv qismlarida sodir bo'lib, xo'jalik operatsiyasi natijasida balansning aktiv qismidagi bir modda va passiv qismida boshqa bir modda shu summaga kamayadi, balansning umumiy summasi ham shu summaga kamayadi.

Buxgalteriya balansining har xil turlari mavjud bo'lib, ular quyidagi belgilari bo'yicha tavsiflanadi:

- tuzilish vaqtiga ko'ra;
- axborot hajmiga ko'ra;
- mulkchilik shakliga ko'ra;
- aks ettirish obyektiga ko'ra;
- tozalash usuliga ko'ra.

Tuzilish vaqtiga ko'ra buxgalteriya balanslari kirish, joriy, tugatish, bo'linish va birlashtirish balanslariga bo'linadi.

Buxgalteriya balansining eng muhim jihatlaridan biri bu manfaattdor tomonlarga korxonaning mablag'lari, mablag'larning manbalari, o'z aylanma mablag'lari, majburiyatlar, umuman olganda moliyaviy holati haqida ma'lumot taqdim qilishidir. Buxgalteriya balansining muhimligi va ahamiyati korxonaning aktivlari va passivlari harakati ustidan to'liq nazorat qilish, keyinchalik foyda olish maqsadida u yoki bu resurslarni ishlab chiqarishga jalg qilishning maqsadga muvofiqligini aniqlash, salbiy iqtisodiy hodisalarning oldini olish yoki oqibatlarini pasaytirish, moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkoniyatini taqdim etishidan iborat. Ushbu maqsadlarga erishish uchun buxgalteriya balansi ma'lumotlaridan foydalanuvchilarni buxgalteriya balansi subyektlari deb nomlash mumkin.

Buxgalteriya balansi subyektlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- qonunchilik va ijro hokimiyyati organlari (soliq, stasistika);
- tasischilar, investorlar va aksiyadorlar;
- mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar;
- turli xil kreditorlar.


Buxgalteriya balansi ma'lumotlaridan foydalanuvchilarining turli xil ma'lumotlardan foydalanadilar. Korxonaning joriy va kelgusidagi to'lovga layoqatlilik – kabi ma'lumotlar mol yetkazib beruvchilar va kreditorlarni, korxonaning foydalilik darajasi – aksiyadorlar va investorlarni, aylanma mablag'larning harakati va holati – ichki foydalanuvchilarni qiziqtiradi. Bundan ko'rindaniki, buxgalteriya balansi ma'lumotlaridan foydalanuvchilarining ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlari turli xil. Shundan kelib chiqqan holda buxgalteriya balansi ma'lumotlarini shakllantirishga nisbatan ma'lum bir talablar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya balansiga nisbatan qo'yilgan talablar "Buxgalteriya balansi" nomli 15-sonli buxgalteriya hisobi milliy standarti bilan tartibga solinadi. "Buxgalteriya balansi" nomli 15-sonli BHMS buxgalteriya balansini topshirish chog'ida oshkor qilinadigan axborotga qo'yiladigan talablarni belgilaydi<sup>[11]</sup>. Ushbu standartning 4-bandida "Buxgalteriya balansidagi barcha axborot to'g'ri oshkor qilinishi va foydalanuvchilarga tushunarli bo'lishi kerak"ligi ta'kidlangan. Ushbu 15-son BHMS O'zbekiston Respublikasida Buxgalteriya balansining mazmuniga hamda undagi axborotlarni shakllantirishga nisbatan talablarni tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanganligiga qaramasdan, buxgalteriya balansini tuzishda amal qilinadigan prinsiplar keltirilmagan.

Mamlakatimizdagi soha mutaxassislari hisoblangan A. AKarimov, F. R. Islomov, A. Z. Avloqulov, R. D. Dusmuratov, D. Xolboyev, I. K. Ochilov, D. X. Azlarov, M. S. Tulayev va boshqalarning ishlarida buxgalteriya hisobini tuzishda rioya qilinishi kerak bo'lgan prinsiplar keltirilgan bo'lib, umumiy tarzda moliyaviy hisobotni tuzishda amal qilinishi kerak bo'lgan umumiy talablar bayon qilingan<sup>[12]</sup>.



O. V. Mamoshina buxgalteriya balansining ahamiyati uni shakllantirishning asosiy prinsiplarida o‘z aksini topadi deb ta‘kidlagan hamda quyidagi asosiy prinsiplarni keltirgan. O. V. Mamoshinaning fikriga ko‘ra ushbu prinsiplarga amal qilishgina buxgalteriya balansining zarur funksionalligini ta‘minlaydi [14].



**4-chizma:** Buxgalteriya balansini shakllantirish prinsiplari

Buxgalteriya balansini shakllantirish prinsiplarining mazmunini ko‘rib chiqamiz:

- Balansning to‘g‘riliqi.** Balansni shakllantirishning ushbu prinsipi ular asosida ko‘rsatkichlar shakllanadigan hisob va dastlabki hujjatlarning ishonchligini ta‘minlaydi. Agar qandaydir xo‘jalik faktlari tegishli tarzda tasdiqlanmagan yoki noto‘g‘ri rasmiylashtirilgan holatlar mavjud bo‘lsa, korxona balansida chalkash (buzib ko‘rsatilgan) ma‘lumotlar aks ettiriladi.
- Balansning haqqoniyligi.** Ushbu prinsip hisob obyektlari bahosi bilan balansning tegishli satrlarida aks ettirilgan ma‘lumotlar bilan muvofiqligini anglatadi.
- Balansning birligi.** Ushbu prinsip buxgalteriya balansi hisob va baholashning yagona prinsiplari asosida shakllanishini bildiradi.
- Balansning davomiyligi.** Balans shakllanishining ushbu prinsipi har bir keyingi balans o‘zidan oldingi balans ko‘rsatkichlaridan kelib chiqishini anglatadi. Misol uchun, o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha yakuniy balans hisobot yili uchun boshlang‘ich balans bo‘lishi kerak.
- Balansning aniqligi.** Ushbu prinsip buxgalteriya balansini tuzgan hamda uni o‘qiydigan va tahlil qiladigan shaxslarning barchasi tushunishi uchun qulayligi bilan izohlanadi.

Bizning fikrimizcha, buxgalteriya balansini shakllantirishda yuqoridaq prinsiplarga rioya qilish unda keltirilgan axborotlarning to‘g‘riliqi, haqqoniyligi hamda taqqoslanuvchanligini ta‘minlashga imkon beradi.

## XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijaslarini umumlashtirgan holda iqtisodiy adabiyotlarda buxgalteriya balansini turkumlashning belgilari bo‘yicha yagona yondashuv mavjud emasligi haqida xulosa qilish mumkin. Buxgalteriya balansini turkumlash belgilari va turlari bo‘yicha har bir muallifning o‘ziga xos qarashi mavjud. Har bir davrda buxgalteriya balansini turkumlash belgilari axborotlarni shakllantirish va umumlashtirish tlablari va prinsiplariga javob bergen bo‘lsada, jamiyat rivojanishini bilan birgalikda buxgalteriya hisobining kuzatuv obyektlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar ma‘lumotlarini shakllantirishga yondashuvlar o‘zgardi va shundan kelib chiqqan holda buxgalteriya balanslarini turkumlash belgilari ham o‘zgarishlarga uchradi. Mualliflarning buxgalteriya balansini turkumlashga turli xil yondashuvlari bo‘lishidan qat’iy nazar, umumiyligi tuzish vaqtini ko‘rsatish mumkin. Buxgalteriya balansini turkumlashg nisbatan qarashlarning umumiyligi balansning ma‘lum bir sanaga tuzilganligi va tuzish maqsadiga bog‘liqligidir.

Shunday qilib, umumlashgan ko‘rsatkichlarni shakllantirish va balansni tuzish maqsadlariga bog‘liq holda istalgan xo‘jalik yurituvchi subyekt buxgalteriya balansining turkumlash belgilarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- Mirziyoyev Sh. M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -Toshkent. 22. 12. 2017. –43 b.
- “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish haqida. 2016-yil 13-aprel. O‘RQ- 404 (yangi taxrirda).
- R. O. Xolbekov. Buxgalteriya hisobiga kirish. (Darslik) – T.: “Inovatsion rivojlanish nashriot-matbaa uyi”, 2022, 220 bet. (28 bet)
- D. A. Satyvaldysheva Buxgalteriskiy uchet. (Uchebnik). – T.: Iqtisodiyot, 2015. –580 c.



5. Dusmuratov R. D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. -T.: "Fan va texnologiya", 2013, 476 bet. 69-bet.
6. Рыбьянцева М.С., Оксанич Е. А. Актуальные вопросы формирования информации бухгалтерского баланса в современных условиях // Научный журнал КубГАУ, №71(07), 2011. <http://ej.kubagro.ru/2011/07/pdf/12.PDF>.
7. Рябова М. А., Богданова Н. А. Теория бухгалтерского учета: учебное пособие. – Ульяновск: УлГТУ, 2009. – 158 с. стр. 40; Глушенко А. В. Теория бухгалтерского учета: учебное пособие. – Волгоград: Изд-во ВолГУ, 2003. – 134 с. Страницы 25–26.
8. U. I. Inoyatov, S. D. Yusupova, F. R. Salimbekova. Buxgalteriya hisobi. (O'quv qo'llanma). – T.: "Sharq" nashriyoti, 2012. –288 bet.
9. Мамошина О. В. Бухгалтерский баланс как основная форма бухгалтерской отчетности (часть 1) // Социально-экономические явления и процессы. -2015. – № 2(048). - С. 67-73.
10. M. S. Tulayev, B. P. Qlichev. Moliyaviy hisob. (Darslik). – T.: "Inovatsion rivojlanish nashriot-matbaa uyi", 2022, 516 bet.
11. Buxgalteriya balansi. 15-son buxgalteriya hisobining milliy standarti. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2003-yil 12-martdagi 45-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 20-martda 1226-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. <https://lex.uz/acts/839065>
12. Buxgalteriya balansi. 15-son buxgalteriya hisobining milliy standarti. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2003-yil 12-martdagi 45-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 20-martda 1226-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. <https://lex.uz/acts/839065>
13. Dusmuratov R. D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. -T.: "Fan va texnologiya", 2013, 476 bet. 336–337-betlar; Karimov A. A., Islomov F. R., Avloqulov A. Z. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: "Sharq", 2004. – 592 b.; Xolboyev D. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. – T.: Cho'lpox nomidagi NMU, 2016 – 236 bet; Ochilov I. K., Azlarov D. X., Avloqulov A. Z. Moliyaviy hisob-t. O'quv qo'llanma. T.: Toshkent moliya instituti. 2004. 328-b.
14. Мамошина О. В. Бухгалтерский баланс как основная форма бухгалтерской отчетности (часть 1) // Социально-экономические явления и процессы. -2015. – № 2(048). - С. 67-73.
15. Tulayev Mirzakul Salamovich. (2023). Korxonalarning moliyaviy faoliyatini tashqi auditorlar tomonidan tekshirish masalalari . World Scientific Research Journal, 16(1), 252–258. Retriyeyed from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrij/article/view/2724> <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=11&article=105>
16. Tulayev, M. (2021). MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashdirish. Arxiv nauchnykh issledovaniy.



**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

